



OROL DENGIZI BOYLARIDAGI QURIGAN JOYLARNI KO'KALAMLASHTIRISH VA XALQ HOJALIGIDA FOYDALANISH...!

Ulashev Jaloliddin Baxtiyor o'g'li

*Zooinjeneriya yo'nalishi 2-kurs talabasi Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, Chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali*

Annotatsiya; *Orol bo'yidagi hududlarni qayta jonlantirish uyerdagi hilatni barqaror holga keltirish, uyerda qilinadigan ishlarning muvaffaqiyati ekilayotgan o'simliklarga bog'liq.*

Kalit so'zlar: *sho'rlanish, yashil makon, ozuqa bazasi, aslarilar, baliq ho'jaligi, moslashish,*

Абстрактный; *От высаженных растений зависит оживление территорий вдоль острова, стабилизация там климата, успех проводимых там работ.*

Ключевые слова: *засоление, зеленые насаждения, кормовая база, пчелы, рыбоводство, адаптация,*

Abstract; *Revitalization of the areas along the island, stabilization of the climate there, success of the work done there depends on the plants being planted.*

Key words: *salinity, green space, food base, bees, fish farming, adaptation,*

Mamlakatimizda ekologik holatni yaxshilash, Orol dengizining suvi qurigan tubi va Orolbo'yi mintaqasidan ko'tarilayotgan qum, tuz va chang zarrachalarining salbiy ta'sirini kamaytirish, ushbu hududlarda cho'l o'simliklaridan "yashil qoplamalar" — barpo etish ishlarini izchillik bilan davom ettirish hamda global iqlim o'zgarishlarining salbiy ta'sirini yanada yumshatish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi.

1. Hozirgi kunga orol bo'yi hududlarini qayta jonlantirish va o'sha joylarda yshil hududlar barpo etish borasida turli ishlar olib borilmoqda. Orol dengizi bo'ylarining



haddan ziyot sho'rlanishi va yildan yilga suv tanqisligi ortib borishi sababli uyerlarda hozirgi kunda baliqchilik zonalarini qisqarib ketmoqda nafaqat baliqchilik bal kim o'sha joylarda o'simliklarning ham qarib 90% yo'qolib ketishiga sabab boldi.

Shusababdan hozirgi kunda aynan o'sha hududlarda Mamlakatimizda ekologik holatni yaxshilash, Orol dengizining suvi qurigan tubi va Orolbo'yi mintaqasidan ko'tarilayotgan qum, tuz va chang zarrachalarining salbiy ta'sirini kamaytirish, ushbu hududlarda cho'l o'simliklaridan "yashil qoplamalar" — barpo etish ishlarini izchillik bilan davom ettirish hamda global iqlim o'zgarishlarining salbiy ta'sirini yanada yumshatish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori qbul qilindi: Qarorga mofiq Orol dengizining qurigan maydoniga saksovul ekish ishlarida 1 ming 560 kishi ishtirok etgan. Bu ishlarga 462 texnika va 2 samolyot jalb qilingan.

Orol dengizining 363 ming gektar qurigan maydoniga saksovul ekildi

18 fevral holatiga ko'ra, Orol dengizining qurigan 917,2 ming gektar yer maydoni ekishga tayyorlangan. Uning 363 ming gektariga saksovul urug'i ekilgan. Bu haqda O'zA xabar berdi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi boshchiligida tuzilgan tezkor shtab tomonidan taqdim qilingan ma'lumotga ko'ra, tayyor urug'ni idishlarga joylashtirish, ekish maydonlarini tayyorlash, ekish va boshqa tadbirlarda jami 1 ming 560 kishi ishtirok etgan. Bu ishlarga 462 texnika va 2 samolyot jalb qilingan.

Samolyot yordamida 266 ming gektar maydonga saksovul urug'i sepilgan bo'lsa, traktor yordamida 96,5 ming gektar yerga ekilgan. Bugungi kungacha 1 ming 321 tonnadan ortiq saksovul urug'i yig'ilgan. Uning 260 ming kilogrammdan ortig'i mahalliy aholi tomonidan yig'ilib, ularga mehnat haqi o'z vaqtida berib kelinmoqda.



Hozirgi kunga qadar 4 milliard soʻmdan ortiq pul mahalliy urugʻ yigʻuvchilar mehnatiga toʻlangan.

Orolning qurigan maydonidagi saksovullar orasiga yovvoyi hayvonlar va chorva uchun ozuqabop ekinlar ham ekilmoqda. Dengizning qurigan maydonlarida 40 ta artezian qudugʻi qaziladigan boʻldi. Chuchuk suv chiqyapti. Bu kelajakda chorvachilikni rivojlantirish imkonini beradi, degani.

Joriy yilda dengizning qurigan maydonida 500 ming gektar «yashil qoplama» barpo etish rejalashtirilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 15 fevraldagi «Orol dengizi tubidagi suvi qurigan hududlarda «yashil qoplamalar» — himoya oʻrmonzorlari barpo etishni jadallashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qaroriga koʻra, koʻtarilayotgan qum, tuz va chang zarrachalarining salbiy taʼsirini kamaytirish, ushbu hududlarda choʻl oʻsimliklaridan himoya oʻrmonzorlari barpo qilishni samarali tashkil etish hamda global iqlim oʻzgarishlari, Orol dengizi qurishining qishloq xoʻjaligi rivojlanishi va aholining hayot faoliyatiga salbiy taʼsirini yumshatish maqsadida 2019 yilda amalga oshiriladigan tadbirlar uchun 100 milliard soʻm ajratildi.

Ushbu qarorda belgilanishicha, bahor mavsumida 200 ming gektar, kuzda esa 300 ming gektar «yashil qoplama»lar tashkil qilinadi. Umuman, ushbu himoya oʻrmonzorlarining 50 ming gektari koʻchatdan, 450 ming gektari urugʻdan barpo qilinadi.

Darhaqiqat, ushbu ekologik ofatdan eng koʻp Moʻynoq xalqi aziyat chekib kelmoqda. Ayniqsa, iyul-avgust oylarida nihoyatda katta chang-toʻzon havoga koʻtariladi. Himoya oʻrmonlari barpo qilinsa, ushbu muammolar barham topadi.



2: Baliqchilik xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv havzalaridan foydalanish tartibini takomillashtirish hamda baliq ovlash va suv bo‘yi turizmi maskanlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Prezident qarori Qarorga ko‘ra, 2023-yil 1-oktyabrdan quyidagilar tadbirkorlarga «E-auksion» elektron savdo platformasida elektron onlayn auksion orqali ijaraga beriladi:- davlatga tegishli tabiiy va sun‘iy suv havzalari (suv omborlari) – baliqni sanoat usulida yetishtirish, ovlash va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar uchun;- tabiiy va sun‘iy suv havzalari (suv omborlari) hamda daryo atrofidagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari – suv bo‘yida plyaj zonalarini tashkil etish, sport-ishqibozlik turidagi baliq ovlash, baliq ovi, qayiqda suzish va suv sayohati bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish, baliq mahsulotlari, shu jumladan baliq taomlari savdosi, umumiy ovqatlanish va boshqa turizm xizmatlarini tashkil etish hamda ushbu maqsadlarda yengil konstruksiyali qurilmalarni (o‘tov lagerlari majmuasi, konteynerlarni) joylashtirish uchun.Qarorga ko‘ra, 2024-yilda respublikada:- 900 ming tonna baliq yetishtirish;- 35 240 gektar sun‘iy suv havzalarini intensivlashtirib, 513 600 tonna baliq yetishtirish;- 9 000 xonadonda intensiv usulda baliq yetishtirishni yo‘lga qo‘yish nazarda tutilgan.

2024-yil 1-yanvardan «Har bir oila – tadbirkor» dasturi doirasida aholi va tadbirkorlarga baliqchilik loyihalarini amalga oshirish uchun 50 million so‘mgacha garovsiz kredit ajratiladi.«Mo‘ynoq akva sanoat» davlat unitar korxonasi zimmasiga:- baliq chavoqlarini yetishtirish bo‘yicha baliq pitomniklari va inkubatsiya sexlari barpo etish;- baliqlarni qafasda yetishtirish texnologiyalarini joriy etish;- havaskor hamda sport baliqchiligi va baliqchilik sayohatini rivojlantirish vazifalari yuklatiladi.Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2020 yilga borib, «Mo‘ynoq akva sanoat» DUK yiliga 3500 tonna baliq yetishtiradi. 2024yilda bu raqam 450 tonnani tashkil etishi ko‘zda tutilgan.



Foydalangan adabiyotlar.

Orol muammolari" – Ziyoviddin Akramov va Risqitilla Nurinboev tomonidan 1979 yilda yozilgan ushbu asar Orol dengizining ekologik muammolarini tahlil qiladi. "Orolni qutqarish mumkin" – Saidrahmon Mirzayevning 1988 yilda chop etilgan ushbu maqolasi dengizni saqlab qolish bo'yicha takliflarni o'z ichiga oladi. "Orol dengizi tarixi" – Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tomonidan 2020 yilda e'lon qilingan ushbu maqola dengizning tarixiy rivojlanishini yoritadi. "Orol dengizini qadimda qanday tasavvur qilishgan va qanday atashgan?" – 2024 yilda Oyina.uz saytida chop etilgan ushbu maqola dengizning qadimgi nomlari va tasavvurlari haqida ma'lumot beradi.